



UO*K: 94(575.1):930.85:903.2(575.152)

Shokir PARMANOV,

O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: sh.parmanov@nuu.uz, ORCID: 0000-0002-4209-1524

T.f.d, professor R.Suleymanov taqrizi asosida

KESH SHAHRINI RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR DAVRI SHAHAR MADANIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Kesh shahrini rivojlangan o'rta asrlar davri shahar madaniyati taraqqiyoti haqida so'z yuritiladi. Muallif tomonidan Kesh shahrining o'rta asrlar davri yodgorliklari arxeologik hamda yozma manbalarni taqqoslash, tahlil qilish asosida batafsil yoritilgan. Asosan mazkur davrdagi shaharsozlik madaniyati, qurilish va me'morchilik inshootlari masalalariga qaratilgan. **Kalit so'zlar:** Movarounnahr. Kesh, Shahrisabz, Nasaf, Termez, Oqsaroy, X-XIII asrlar, Amir Temur, Xofizu Abru, Rui Gonsales de Klavixo, Z.M.Bobur, Boburnoma, V.V. Bartold, M.YE.Masson, G.A.Pugachenkova, Sh.S.Kamoliddinov.

THE DEVELOPED MEDIEVAL URBAN CULTURE OF THE CITY OF KESH.

Annotation

This article examines the development of urban culture during the developed medieval period in the city of Kesh. The author provides detailed coverage of the monuments of the medieval city of Kesh based on the comparison and analysis of archaeological and written sources. During this period, primary attention was paid to issues of urban planning culture, construction, and architectural structures.

Key words: Movarounnahr. Kesh, Shahrisabz, Nasaf, Termez, Aksaray, X-XIII centuries, Amir Temur, Hafiz Abru, Rui Gonzalez de Clavijo, Z.M. Babur, Baburnama, V.V. Barthold, M.E. Masson, G.A. Pugachenkova, Sh.S. Kamoliddinov.

РАЗВИТАЯ СРЕДНЕВЕКОВАЯ ГОРОДСКАЯ КУЛЬТУРА ГОРОДА КЕШ

Аннотация

В данной статье рассматривается развитие городской культуры в период развитого средневековья в городе Кеш. Автор подробно освещает памятники средневекового города Кеш на основе сравнения и анализа археологических и письменных источников. Основное внимание уделяется вопросам градостроительной культуры, строительства и архитектурных сооружений этого периода.

Ключевые слова: Мавераннахр. Кеш, Шахрисабз, Насаф, Термез, Аксарай, X-XIII века, Амир Темур, Хафизу Аbru, Руи Гонсалес де Клавиho, З.М.Бабур, Бабурнаме, В.В. Бартольд, М.Е.Массон, Г.А.Пугаченкова, Ш.С.Камолитдинов.

Kirish. Kesh vohasining o'rta asrlar davri madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida, ijtimoiy-iqtisodiy hayotining taraqqiyotida vohadagi shaharsozlik va qishloqlarning o'rni nihoyatda beqiyos. Vohaning rivojlangan o'rta asrlar davri shaharsozligining muhim muammolaridan biri Kesh (Kitob) shahrining hozirgi Shahrisabz shahri joylashgan hududga qaysi davrda, qaysi asrlarda ko'chganligi masalasi. Bu masalada olimlar o'rtasida hozirgacha yagona fikr yo'q. Bu masalaga dastlab M.YE.Masson va G.A.Pugachenkova yondashganlar va ular Shahrisabz o'rnidagi qishloq bu hududda XIII asrdan keyin paydo bo'lgan, shahar devorlari esa Amir Temurning buyrug'iga asosan 1378/79 yillarda qurilgan degan fikrni bildirganlar.[1] Bu fikrni devorlarni arxeologik jihatdan tadqiq etgan boshqa mutaxassislar guruhi ham quvvatlaydilar.[2] Temuriylar davri tarixnavisi Hofizi Obro'ning bergan ma'lumotiga qaraganda, Amir Temur sohibqiron Kesh (Shahrisabz) qal'a devorlarini bunyod etishga kirishganida bu yerda eski mudofaa devorlari qoldiqlari ("Bandi qadim") mavjud bo'lgan.[3]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Шахрисабз shahrining mudofaa devorlari XI-XII asrlarda Qoraxoniylar davrida qurilgan bo'lishi mumkinligi Sh.Kamoliddinov tomonidan kайд etilgan. Kesh (Kitob) darvozarlaridan biri Bob Barknon deb atalgan va bu darvoza shaharning janubiy-g'arbiy qismida bo'lib undan Nasaf va Termizga qarab savdo yo'li chiqqan. Mana shu yo'l ustida shaharga yaqin masofada Barknon joylashgan. Shahar darvozasi qishloq nomi bilan

atalishi bu qishloqning juda yirik bo'lganligidan dalolat beradi. Sh.S.Kamoliddinovning fikriga ko'ra, Barknon hozirgi Shahrisabz o'rnidagi yirik qishloq bo'lib u dastlab Kesh (Kitob) ning "yo'ldosh shaharchasi" bo'lgan va keyinchalik, Shahrisabz Keshi mana shu qishloq asosida shakllangan.[4] Yirik savdo yo'li ustida joylashgan bu qishloq asta sekinlik bilan yirik savdo va hunarmandchilik markaziga aylana boshlagan, XI-XII asrlarda unda jomye masjidi qurilgan.

Mana shu davrda Movarounnahrning yirik shaharlarida nomozgohlar qurish ham rasm bo'lgan. Bir qator diniy bayramlarda butun shahar xalqining bir vaqtda namoz o'qishi uchun shahar ichidagi jomye masjidlari torlik qilganligi, tufayli bunday inshootlarga ehtiyoj tug'ilgan. Kesh-Shahrisabz ham yirik shaharga aylanganligi uchun bu yerda ham nomozgoh bunyod etilgan.

M.YE.Masson va G.A.Pugachenkovalarning fikrlaricha, Kesh-Shahrisabz nomozgohi XIX asrda faoliyat ko'rsatgan nomozgoh o'rnida, Kitob darvozasidan (Oqsaroyning ro'parasida) yarim kilometr shimolda, bu yerda joylashgan Balandtepa atrofida bo'lgan. 1980 yillarda Balandtepada zardushtiylik ibodatxonasining qoldiqlari topilgan, lekin bu yerda o'rta asrlar qatlamlari uchramaydi.[5]

Z.I.Usmanovning fikriga ko'ra, Shahrisabz shahriga mo'g'ullar hukmronligi davrida asos solinganligini ta'kidlagan.[6] Shuning uchun, Shahrisabz shahri hududida Z.I.Usmanova tomonidan qo'lga kiritilgan natijalarni batafsilroq tahlil qilish lozim. Tadqiqotchining ma'lumotlariga

ko'ra, Kesh-Shahrisabzning mudofaa devorlari X-XII asrlarga oid arxeologik materiallarga ega bo'lgan madaniy qatlamlar ustiga bunyod etilgan. Bu davrga oid madaniy qatlamlar shaharning sharq tomondagi Qalmoq darvozasi atrofidagi shahar devorlari tagidan, g'arb tomondagi Kushxona darvozasi yaqinidagi minoralar oralig'idan solingan kesmalardan, hozirgi Ko'k gumbaz masjidi joylashgan hududlardan va boshqa ko'plab o'rinlardan topilgan. "... Shahrisabzning g'arbiy, shimoliy va sharqiy mudofaa devorlaridagi kesmalar, tozalashlar deyarli bir xil manzarani ko'rsatadilar. Dastlabki devor gorizontall, qalinligi 7-15 sm bo'lgan qatlamli paxsadan qurilgan va u X-XII asrlarga oid arxeologik materiallarga ega bo'lgan madaniy qatlamlar ustiga turibdi. Bu devorda keyingi davrlarga oid materiallar uchramaydi va qatlamli paxsa devor ostida ham qadimiyroq biror inshootning qoldiqlari yo'q va qatlamli paxsa devorni 1378/79 yillarda Temur tomonidan qurilgan devor deb hisoblash mumkin"[7] Z.I.Usmanovanning bunday xulosaga kelishiga Shahrisabz devorlari orasidan 1361/62 yillarda Xayr Po'lat tomonidan Yangi Saroyda zarb etilgan tanga (pul)ning topilishi asos bo'lgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Shahrisabz mudofaa paxsa devorlari ichidan X-XIII asrlarga oid arxeologik materiallar uchragan.[8] Bu o'rinda Hofizi Abro'ning Amir Temur shahar devorlarini qurishga kirishganda bu yerda eski mudofaa devorlarining qoldiqlari mavjud bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotini yana bir marta eslash juda ham muhim.[9] M.YE.Massonning fikricha, Amir Temur tomonidan Shahrisabz hisorining devorlari qurilayotganda Samarqanddagi kabi eski shahar devorlari qoldiqlaridan foydalanilgan bo'lishi mumkin.[10] 1361/62 yillarda zarb qilingan tanga Shahrisabzning mo'g'ullar davrida buzilgan devori ta'mirlanishi davrida ham tushib qolgan bo'lishi mumkinligini taxmin qilgan holda, yana bir yangi fikrni ilgari surishga imkon yaratadi. Amir Temur davrida Kesh-Shahrisabz devorlarini ta'mirlashda Xorazmshohlar davri mudofaa devorlari qurilishi usuli-qatlamli paxsadan foydalanilganligi ham ehtimoldan xoli emas. Bu o'rinda shuni ham ta'kidlash lozimki, Amir Temur davrida Samarqand va boshqa shaharlarda qurilgan mudofaa devorlarining birortasida ham qatlamli paxsa ishlatilmagan, demak, qatlamli paxsa Amir Temur va temuriylar davri uchun umuman xos emas.

Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixo 1403 yilda Ispaniyadan chiqib, u 1404 yil 28 avgustda, payshanba kuni o'z hamrohlari bilan Keshga janubiy darvozadan kirib keladi. U Shahrisabz haqida, uning tabiati, qurilishlari haqida qiziqarli ma'lumotlarni o'z kundaligiga yozib qoldiradi: "Kesh tekislikda joylashgan, bag'rida ko'plab ariqlar va anhorlar oqadi, shaharda bog'lar va uylar ko'p. Aholi zich yashaydigan qishloqlar, ko'm-ko'k o'tloqlardan iborat, suvga serob bu tekislik yozda juda go'zal manzara kasb etsa kerak. Tekis sug'oriladigan dalalarda bug'doy, paxta, qovun-tarvuz ekilgan, hammayoqda tokzorlar va mevali bog'lar bor. Shahar atrofi tuproq qo'rg'on va chuqur handaklar bilan o'ralgan. Shaharga kiriladigan darvozalar oldida ko'tarma ko'priklar bor. Shaharda ko'plab katta uylar va masjidlar bor. Temurbek tomonidan qurilayotgan bir masjid alohida ajralib turadi. Masjidning qurilishi hali tugamagan. Unda Temurbekning otasi dafn etilgan maqbara bor. Temurbek topshirig'i bilan uning o'zi uchun qurilayotgan maqbara hali bitmagan. Aytishlaricha, bundan bir oy oldin o'tgan Temurbekning maqbara qurilishining borishidan ko'ngli to'lmagan. Maqbaraning eshigi pastligini aytib, uni qaytadan ishlashni buyuradi. Hozir ustalar shu topshiriqni bajarish ustida ishlamoqda. Bundan tashqari Temurning to'ng'ich o'g'li Jahongir ham shu masjidda dafn etilgan. Masjid va maqbaralar tillo, zangori bo'yoq va koshinlar bilan mukammal ishlangan. Masjid oldidagi katta hovlida hovuz bor, atrofta daraxtlar o'sib turibdi. Temurbekning

farmoyishiga binoan masjidda har kuni yigirmata qo'y so'yilib, otasi va o'g'li xotirasi uchun elga osh beriladi. Elchilarni eng avvalo shu yerga boshlab keldilar. Ko'plab go'sht va meva-chevalar keltirilib, ularni mehmon qildilar".[11]

Endi Amir Temurning Keshni obodonlashtirish sohasidagi faoliyatiga nazar tashlaylik. Darhaqiqat, har bir inson o'z tug'ilgan yurti bilan faxrlanadi. Qo'ldan kelsa eliga xizmat qilishni, xalqini e'zozlashni, turmushini farovon etishni istaydi. Xazrat Sohobqiron ham shu orzu-umidlarga sodiq. O'z ota yurti Keshni dunyoning eng go'zal va obod maskanlaridan biriga aylantirishga intilgandi.

"Boburnoma"da bayon etilgan quyidagi so'zlari yuqorida aytilgan fikrimizga nazar tashlaylik. Darhaqiqat, har bir inson o'z tug'ilgan yurti bilan faxrlanadi. Qo'ldan kelsa eliga xizmat qilishni, xalqini e'zozlashni, turmushini farovon etishni istaydi. Xazrat Sohobqiron ham shu orzu-umidlarga sodiq. O'z ota yurti Keshni dunyoning eng go'zal va obod maskanlaridan biriga aylantirishga intilgandi.

"Boburnoma"da bayon etilgan quyidagi so'zlari yuqorida aytilgan fikrimizga nazar tashlaylik. Darhaqiqat, har bir inson o'z tug'ilgan yurti bilan faxrlanadi. Qo'ldan kelsa eliga xizmat qilishni, xalqini e'zozlashni, turmushini farovon etishni istaydi. Xazrat Sohobqiron ham shu orzu-umidlarga sodiq. O'z ota yurti Keshni dunyoning eng go'zal va obod maskanlaridan biriga aylantirishga intilgandi.

"Boburnoma"da bayon etilgan quyidagi so'zlari yuqorida aytilgan fikrimizga nazar tashlaylik. Darhaqiqat, har bir inson o'z tug'ilgan yurti bilan faxrlanadi. Qo'ldan kelsa eliga xizmat qilishni, xalqini e'zozlashni, turmushini farovon etishni istaydi. Xazrat Sohobqiron ham shu orzu-umidlarga sodiq. O'z ota yurti Keshni dunyoning eng go'zal va obod maskanlaridan biriga aylantirishga intilgandi.

Xofiz Abro takidlaganidek, Samarqand va Shaxrisabzda barcha imoratlar loy va yog'ochdan qurilgan. Pishiq g'isht deyarli ishlatilmagan. G.A.Pugachenkoning yozishicha, "...Amir Temur 1378 yilda Kesh qo'rg'onini devor bilan o'ratishtirib rejasini tuzib, uni amalga oshiradi. Devorning eni 8-9 metr balandligi esa 11-12 metrni tashkil qiladi. Devor tuproq to'kilib, uning ustiga suv quyilib, pishitilgan va paxsa tariqasida ko'tarilgan. O'rab olingan devorning har 50 metrda burjlar qad rostlagan. Devorning tashqi tomonidan chuqur choh qazib suv to'ldirib qo'yilgan holda saqlangan".[13]

XIV asrning oxirlari, XV asrda Kesh shahrining markaziy qismida mahobatli turar joylar bilan bir qatorda, masjidlar, madrasalar, karvonsaroylar, xonaqohlar, hammomlar va bo'lak xayriya binolari bo'lgan. Ularning ayrimlari yetib kelgan, boshqalari saqlanmay nobud bo'lgan. [14]

Amir Temur hukmronligining ilk davrida Kesh shahrini u davlat poytaxtiga aylantirish niyatida bo'lib, uning obodonligiga katta ahamiyat berdi. Unda dunyoga dong'i ketgan mashhur Oqsaroy qad ko'taradi. Eroniy me'morlarning mahorati bilan bino qilingan bu muhtasham saroyning peshtoqi, toqu ravoqlari va devorlari zargori va oltin rangdagi arabiy naqshli koshinlar, guldor o'ymakor parchinlar bilan ziynatlandi. Sohobqiron Keshda alohida e'tibor berib uni O'rta Osiyoning ma'naviy markaziga aylantirishga harakat qildi. Shu boisdan bu shahar "Qubbat ul-ilm val adab" ya'ni ("Ilm va adab (tarbiya)ning gumbazi") degan unvonga ega bo'ldi[15].

Bigacha yetib kelgan unga yaqin obidalarining eng ko'rkami, fusunkori Oqsaroydir. G.A.Pugachenkova XV asrdagi Shahrisabz haqida o'z fikrini bildirar ekan, XV asr - sharq tarixchisining Shaxrisabzni Kesh - dilkash yoxud "qalb shodligi" deb ta'riflaganini yozadi. Darhaqiqat, Shahrisabzda amir Temur davrida bunyod etilgan obidalar o'zining me'morchilik jihatidan jihozlanishi bilan eng yuksak darajada bajarilgan bo'lib, o'sha vaqtlarda Amir Temur va Temuriylarning davrida Samarqand va Hirotda qurilgan imoratlardan qolishmas edi.[16]

Oqsaroy Shahrisabz xisorining shimoli-sharqiy qismida qurila boshladi. Uning qurilishi 1379-1380 yillardan boshlanib, 1404 yillarda ham davom ettirilgan. Oqsaroyning balandligi 74

metr bulib, ikki qismi alohida burj shaklida ko'tarilib, tepasi yog'ochsiz, ark shaklida yopilgan. Qasr binolar majmuasi, katta sahna va unga tutashib ketadigan bog'dan iborat edi. Oqsaroyga kirishdagi bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan peshtoqining saqlanib qolgan qismi 38 metr (38 gaz) ni tashkil etadi.

G.A.Pugachenkovaning ta'kidlashicha, Oqsaroy peshtoqlarining tikligi hozirgisidan bir yarim baravar baland bo'lgan. Oqsaroyning bezaklari turli rangda bo'lib, o'ziga xosligi bilan ajralib turgan. Qasr binolarining tashqi va ichki bezaklarida sirlangan g'isht, naqshinlari fusunkorligi va jannati tarovati bilan ko'zni qamashtirgan. Oqsaroy va boshqa binolarni bunyod etgan kishilar - Qashqadaryo me'morchilik maktabining vakillari va shuningdek xorazmlik hamda eronlik qo'li gul ustalar edi. Oqsaroy qurilishiga boshchilik qilgan me'mor qo'li gul usta Muhammad Yusuf Tabriziy edi. Oqsaroyning ko'kka bo'y cho'zgan burjlari va peshtoqlariga xandasaviy bezaklar solinishi bilan bir qatorda turli yozuvlar ham bitilgan.[17]

Oqsaroy Amir Temurning ota yurti Shahrisabzdagi qarorgohi hisoblangan. Shuning uchun u Keshga kelganda shu yerda odamlarni qabul qilgan, turli xil kengashlarni o'tkazgan va orom olgan. Rivoyatlarga ko'ra, 74 metr ko'kka bo'y cho'zgan Oqsaroyning ustida hovo'z bo'lgan. Ushbu hovo'zga suv Taxtaqoracha kechimidan qo'rg'oshin quvurlar orqali keltirilgan. Suv favvoralaridan otilib, quyosh nurlari ta'sirida shu'lalanib turgan va ziyoratga chiqqan kishilarga zavq bag'ishlagan.

Zahiriddin Muhammad Boburning Amir Temur o'z tug'ilgan joyi Keshni "shahar va poytaxt qiluriga ko'p sa'y va ehtimomlar qildi, oliy imoratlar Keshta bino qildi"[18], deb yozganini tahlil etib ko'rsak Shahrisabzda davlatning ma'muriy-markaziy binosini qurdirgani ma'lum bo'ladi. Bu bino Oqsaroy edi. Ammo Oqsaroyni Movarounnahrqa xukmron bo'lganidan keyin qurdirishga kirishadi. Demak, Amir Temurda qachon bo'lsada davlat poytaxtini Keshga ko'chirish istagi bo'lgan degan fikrga kelish mumkin. Biroq shu istak nega amalga oshmadi, javob berish mushkul. Ehtimol hali Oqsaroyning to'liq qurib bitkazilmagani xalaqit bergandir. Zero, Oqsaroyni o'z ko'zi bilan ko'rgan G.Klavixo ham qurilish davom etayotganligini yozib qoldirgandi. Yo'qsa devonxonalarini mavjud bo'lgan ma'muriy binoni Keshda qurishdan qanday maqsad ko'zlangan bo'lishi mumkin. Boburning u Keshni "poytaxt qiluriga ko'p sa'y va ehtimomlar qildi" degan gapi Sohibqiron saltanatining boshlanish davriga emas, aynan XIV asrning 80-90 yillariga - Oqsaroy qurila boshlagan davriga to'g'ri keladi. Amir Temur hech qachon o'z rejalarini oldindan e'lon qilmagan. Balki Xitoy yurishidan so'ng uning qarorgohi sifatida Kesh - Oqsaroy tanlanishi mo'ljallangandir. Amir Temurning 90-yillarda tez-tez Keshda bo'lishi, Shamsiddin Kulol qabrining yaqinida o'ziga sag'ana qurdirishida ham ma'lum ma'no bor.

Hozirgi vaqtda ulkan qasrning bir-biridan ajralgan ikki ravoqi saqlanib qolgan. Ikki ravoq oralig'i 22, 5 metr bo'lib, uzunligi jihatidan Markaziy Osiyoda eng yirik hisoblangan. Har ikki yemirilgan ustunning balandligi hozirgi kunda ham 38 metrga teng. Har bir ravoqning eni esa 40 metrga, balandligi 74 metrga (ba'zi manbalarda 50 metr deyilgan) teng bo'lgan. Yoki Oqsaroyning bo'yi 16-18 qavat uy balandligiga tengdir. Inshoot pishiq g'ishtdan ganch, loy bilan terilgan, yog'och materiallari ishlatilmagan. G'ishtlar atrofi yo'nilib, shakl berib terilgan. G'isht yordamida hosil etilgan shakllar, chiqarilgan naqshlar bino ko'rinishini ochib yuborgan. Peshtoqning yuqori qismi burchaklarida g'ishtdan shakl berib chiqarilgan minoralar usti metall bilan qoplangan. Oqsaroyning devorlariga o'ymakorlik usulida ishlanib yopishtirilgan naqshlar, sirlanib, ranglanib o'rnatilgan - binafsha, ko'k zumrad, yashil, tillo-sarg'ish, sut-

havo rangli, oltin suvi yuritilgan, oq rangli sopol parchin va koshinlar quyosh nurida jilolanib o'ziga xos bir mo'jiza yaratgan. Qasrning Oqsaroy deb atalishi ham sirlangan, ranglangan, oltin, kumush suvi yugirtirilgan sopol plitalar va yopishtirilgan metallarning kechasi oy yorug'i aksi tushib ko'k havo rang hosil etib nurosochishi bilan bog'liq bo'lgan. Oqsaroy peshtoqlariga yopishtirilgan bitkada hijriy 798 yil yozuvi bor. Bu milodiy 1395-1396 yilga to'g'ri keladi. Demak bezaklar ishi shu yilda tugallangan bo'lishi mumkin.[19]

Samarqanddan keyin Sohibqironning doimo e'tiborida bo'lgan ikkinchi shahar - bu uning yoshligi o'tgan Shahrisabz edi. Shahar tog' oldi rayonida joylashgan bo'lib, geografik nuqtai-nazardan tabiati go'zal, qishloq xo'jaligi uchun qulay o'lka bo'lgan. Uning atrofida juda ko'p xilma-xil bog'lar bo'lgan. Bu yerdan Buyuk Ipak yo'lining bir shahobchasi o'tganligi uchun shahar va uning atrofida ko'plab karvonsaroylar va savdo rastalari quriladi. Umuman olganda, Amir Temur Shahrisabz infratuzilmasini yangilab, uni obod va ko'rkam shaharga aylantiradi. Shams-ad-din Kulol mozori oldiga u o'zining otasini va yaqinlarini dafn etib, bu yerda ajoyib maqbaralar va masjid barpo etadi.

Ayniqsa, dunyoga mashhur, tengi yo'q Oqsaroyni qurilishi Shahrisabz mavqeini yanada oshiradi. Oqsaroy, Klavixoni yozishicha, Sohibqiron qurdirgan binolar ichidagi eng mahobatli bo'lib, u yigirma yildan ziyod davr ichida qurilgan. Klavixo o'z kundaligida Oqsaroyni katta saroy deb ataydi. Ispan elchisi bergan xabarga qaraganda, bino ichidagi hovlining kengligi 300 qadam (taxminan 215 m atrofida) edi.[20] Birgina shu ma'lumotni o'zi, bino o'z zamonasining buyuk inshooti ekanligidan darak beradi. Saroyga kirish peshtoqi Samarqanddagi jomye masjidining peshtoqidan ancha keng va baland bo'lgan. Hovlining yuzi, uning o'rtasida joylashgan hovuzni qirg'og'i va ichi marmar toshlar hamda rang-barang parchin va koshinlar bilan qoplangan. Hovlining to'rida, eng katta, asosiy binoni joylashgan. Unga katta bezakli eshik orqali kirilgan. Eshikning tepasida, binoning peshtoqiga sher va quyoshni tasviri tushirilgan bo'lib, unga o'ziga xos kolorit bag'ishlagan. Binoning ichida, birinchi e'tiborli joy - bu shohning hashamatli qabulxonasidir. Ikkinchi qavatda, asosan, Sohibqiron va uning oilasi hamda yaqinlarining yotoqxonalarini joylashgan. Klavixoning yozishicha, ushbu xonalar shunchalik yuqori did bilan pardoizlanganki, uni to'liq ta'riflash juda qiyin.

Shu bilan birga saroy kompleksiga bir necha ayvonlar va hovuzlar kirgan. Ular atrofida esa xilma-xil mevali va soya beradigan daraxtlardan tashkil topgan bog'lar joylashgan. Ushbu jannatmakon joyda, ba'zi vaqtlarda Amir Temur ishtirokida bazmlar uyushtirilgan. Unda Sohibqiron o'z yaqinlari va uzoq davlatlardan kelgan mehmonlar bilan o'tirib, suhbat qurgan va dam olgan.

Tahlil va natijalar. Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, yozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni to'g'riligini tasdiqlabgina qolmay, balki, ularni ma'lum darajada boyitdi. Jumladan, yuqorida tilga olingan saroy hovlisidagi hovuzning ba'zi-bir qismlari ochildi. Hovuzning qirg'oqlari va ichi rang-barang parchin va koshinlar bilan juda mohirona qoplangan. O'z vaqtda, ko'p yillar suv ichida turganligiga va 500 yildan ziyod yer ostida yotganligiga qaramay, ushbu parchin va koshinlar o'z rangi va sifatini avvalgidek saqlagan. Suv bilan bog'liq yer osti kommunikatsiyasini yuqori darajadagi muhandislik tajriba asosida amalga oshirilganligiga guvoh bo'lamiz, ya'ni bu yerda ortiqcha suvni saroy tashqarisiga chiqarib tashlaydigan yer osti suvoqva - tazar tizimi faoliyat ko'rsatgan.

Kesh (Shahrisabz) tarixi Temuriy davri tarixiga oid manbalarda ancha keng yoritilgan va buning asosida Amir Temurning davlatchilik faoliyati yotadi. Ana shu davr manbalarida "Kesh" toponimi bilan bir qatorda "Shahrisabz"

degan nom ham muomalaga kiritilgan. Shahrisabz Amir Temurning vatani bo'lgani sababli, tug'ilganidan to hokimiyatni egallab, davlati poytaxtini Samarqandga ko'chirguncha qadar, uning hayoti bevosita shu shaharda o'tgan. Undan keyingi yillarda ham Amir Temur Shahrisabz obodonchiligiga katta e'tibor berdi.[21]

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, sohibqiron Amir Temur asos solgan buyuk davlat davrida G'arb bilan Sharq orasidagi o'zaro savdo-sotiq va madaniy aloqalar yuqori pog'onaga ko'tariladi. Markaziy Osiyo, ayniqsa, O'rta Osiyo xalqlari hayotida yangi, yorug' kunlar boshlanadi. Siyosiy

barqarorlik jamiyat taraqqiyotini yuqori cho'qqilarga ko'taradi. Bu shahar qurilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu holat ayniqsa, Samarqand va Shahrisabz shaharlarining yangi infratuzilmasini yaratilishida o'z aksini topadi. Me'morchilik va qurilish hamda mahalliy hunarmandchilik yangiliklar bilan doimo boyib borib, integratsiyaga keng yo'l ochiladi. Natijada, ishlab chiqarish va qurilishda yangi texnika va texnologiyalar yaratiladi. Ushbu yangiliklar Samarqand va Shahrisabz shaharlarida qurilgan betakror saroylar, masjidlar, madrasalar, bog'-saroylar va maqbaralarda o'z aksini topgan.

ADABIYOTLAR

1. Массон М.Е., Пугаченкова Г.А. Шахрисябз при Тимуре и Улугбеке. Труды Среднеазиатского Государственного университета. Вып. XLIX, Археология Средней Азии. Ташкент, 1953, с.30-32.
2. Дресвянская Г.Я., Лунина С.Б., Султанов Х.С., Усманова З.И. Шахрисябз. Часть I, II. Ташкент, 1993, с.26-27.
3. Бартольд В.В. Хафиз-и-Абру и его сочинения. Сочинение, том VIII, Москва, 1973, с. 21.
4. Камалидинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX - начала XIII вв. Ташкент, 1996. С. 21-23
5. Массон М.Е., Пугаченкова Г.А. Шахрисябз при Тимуре и Улугбеке // Труды Среднеазиатского государственного университета. Вып. XLIX. Археология Средней Азии. Ташкент, 1953. С. 30-32
6. Усманова З.И., Бахшицян Э. Баландтепе в Шахрисабзе // История и культура южных районов Средней Азии в древности и средневековье. Ташкент, 1988. С. 51-52.
7. Усманова З.И. Археологическое изучение Шахрисябза // Средневековая городская культура Казахстана и Средней Азии. (Материалы Всесоюзного совещания 13-15 мая 1981 г.). Алма-Ата, 1983. С. 208-215.
8. Усманова З.И. Историческая топография Шахрисабза в свете новых данных // Археология Средней Азии. Сб. науч. трудов ТашГУ. №533. Ташкент, 1977. С. 106
9. Бартольд В.В. Хафиз-и-Абру и его сочинения // Соч. Т.8. М., 1973. С. 92.
10. Массон М.Е. Работы Кешской археолого-топографической экспедиции (КАТЭ) по изучению вос-точной половины Кашкадарьинской области Уз ССР 1966 г. Археология Средней Азии // Сб. науч. трудов ТашГУ. №533. Ташкент, 1977. С. 12.
11. Клавихо. Самарқандга - Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406 йиллар). Т., "Ўзбекистон", 2010. 146-147 бетлар.
12. Бобур Захриддин Мухаммад. Бобурнома. / Масъул муҳаррир: Ваҳоб Раҳмонов. // «Шарқ» нашриёт матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, -Т., 2002. 61-бет
13. Дресвянская Г.Я., Лунина С.Б., Султанов Х.С., Усманова З.И. Шахрисябз. Ч.II. Ташкент, 1993. С. 26-27.
14. Parmanov Shokir. (2026). URBAN PLANNING CULTURE OF KESH OASIS DURING AMIR TEMUR'S TIME. International Scientific and Current Research Conferences, 1(01), 98-99. Retrieved from <https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/2265>; Shokir Parmanov. (2022). HISTORICAL TOPOGRAPHY OF KESH-SHAHRISABZ. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2(06), 16-22.<https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume02Issue06-04>
15. Маньковская Л.Ю. Архитектурные памятники Кашкадарьи. Т., 1979. С. 56-57.
16. Пугаченкова Г. А. Термез, Шахрисабз, Хива. М., 1976. С. 60.
17. Пугаченкова Г. А. Термез, Шахрисабз, Хива. М., 1976. С. 61.
18. Бобур Захриддин Мухаммад. Бобурнома. / Масъул муҳаррир: Ваҳоб Раҳмонов. // «Шарқ» нашриёт матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, -Т., 2002. 61-бет
19. Мухаммаджонов А. Р . Амир Темур давлатида ободончилик ва қурилиш ишлари тарихидан. // ОНУ, N. 11-12. 1996. Б. 60.
20. Клавихо. Самарқандга - Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406 йиллар). Т., "Ўзбекистон", 2010. 147-бет.
21. Parmanov, S. (2021). ABOUT KESH TOPONYM AND ITS LOCATION. Current Research Journal of History, 2(07), 1-4. <https://doi.org/10.37547/history-crjh-02-07-01>; Parmanov, S. E. (2019). The urban culture of Kesh oasis in temurids period. ISJTheoretical& Applied Science, 06 (74), 240-243.